



THE NATURE OF THE "TEMPORARY REGULATIONS ON THE ADMINISTRATION OF THE ZARAFSHAN PROVINCE" AS A HISTORICAL SOURCE

Sherzod Tangirov

PhD student

Sharaf Rashidov Samarkand State University

Samarkand, Uzbekistan

E-mail: tangirov87@mail.ru

ABOUT ARTICLE

Key words: "Temporary regulations", «Временное положение», section 5, article 93, large explanatory dictionary of the Russian language, county, uyezd, elders, "military-people's rule", legal document.

Received: 27.11.24

Accepted: 29.11.24

Published: 01.12.24

Abstract: "Provisional Rules for the Administration of Zarafshan Province" approved on June 28, 1868 after the occupation of the Middle Zarafshan Oasis by the Russian Empire. The colonial administration in Zarafshan Province was in force until 1886, as well as in the introduction of colonial administration. effective solution" is a legal document. "Temporary Regulations" is an important resource for the history of the region, and as a result of its study and analysis from the point of view of source studies, valuable information was obtained about how different spheres of life of the Zarafshan province existed in the years 1868-1886 (what was the initial state) at the time of the establishment of the province. can be obtained.

“ZARAFSHON MUZOFOTINI BOSHQARISH TO‘G‘RISDAGI MUVAQQAT QOIDALAR”NING TARIXIY MANBA O‘LAROQ XUSUSIYATI

Sherzod Tangirov

tayanch doktorant

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

Samarqand, O‘zbekiston

E-mail: tangirov87@mail.ru

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: “Muvaqqat qoidalar”, «Временное положение», 5 bo‘lim 93 modda, Rus tilining katta izohli lug‘ati,

Annotatsiya: Rossiya imperiyasi tomonidan o‘rta va yuqori Zarafshon vohasi bosib olinganidan keyin 1868-yil 28-iyunda tasdiqlangan “Zarafshon muzofotini

muzofot, uyezd, oqsoqolliklar, “harbiy-xalq boshqaruvi”, qonun xujjati.

boshqarish bo'yicha muvaqqat qoidalar” Zarafshon muzofotida mustamlakachilik boshqaruvni joriy etishda 1886-yilgacha amalda bo'lgan, shuningdek mustamlakachilik boshqaruvni joriy etishda “samarali yechim” bo'lgan huquqiy hujjat hisoblanadi. “Muvaqqat qoidalar” hudud tarixi bo'yicha muhim manbaviy ahamiyatga ega bo'lib, uni o'rganish va manbashunoslik nuqtai nazaridan tahlil qilish natijasida 1868-1886-yillarda mavjud bo'lgan Zarafshon muzofoti hayotining turli sohalari muzofot tashkil etilgan vaqtda qanday ko'rinishda bo'lganligi (boshlang'ich holati qanday bo'lganligi) to'g'risida qimmatli ma'lumotlarni olish mumkin.

СУЩНОСТЬ «ВРЕМЕННЫХ ПРАВИЛ УПРАВЛЕНИЯ ЗАРАВШАНСКОЙ ГУБЕРНИЕЙ» КАК ИСТОРИЧЕСКОГО ИСТОЧНИКА

Шерзод Тангиров

докторант

Самаркандский государственный университет имени Шарофа Рашидова

Самарканд, Узбекистан

E-mail: tangarov87@mail.ru

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: «Временные положения», раздел 5, статья 93, большой толковый словарь русского языка, уезд, аксакалык, «военно-народное правление», правовой документ.

Аннотация: «Временные правила управления Зерафшанской губернией», утвержденные 28 июня 1868 года после занятия Среднезарафшанского оазиса Российской империей. Колониальная администрация в Зарафшанской губернии действовала до 1886 года, а также при введении эффективное решение колониальной администрации» является юридическим документом. «Временное положение» является важным ресурсом по истории региона, и в результате его изучения и анализа с точки зрения источниковедения были получены ценные сведения о том, как различные сферы жизни Зарафшанской губернии существовали в 1868-1886 годы (каково было первоначальное состояние) на момент основания губернии.

Kirish. 1868-yil 28-iyunda tasdiqlangan “Zarafshon muzofotini boshqarish bo'yicha muvaqqat qoidalar” o'rta va yuqori Zarafshon vohasida Rossiya imperiyasining mustamlakachilik siyosatini joriy qilish maqsadida qabul qilingan muhim huquqiy hujjat hisoblanib, bu hujjat 1886-yilgacha amalda bo'lgan. Mazkur hujjat 19-yuzyillik ikkinchi yarmi Zarafshon muzofoti, xususan

Samarqand hayotining turli sohalari tarixi bo'yicha amalga oshiriladigan tadqiqotlarda muhim manbaviy ahamiyatga ega. Hujjat bu davr boshqaruvni tashkil etish, soliq yig'ish va aholi bilan aloqa va o'zaro munosabatlarni osonlashtirish va tizimlashtirish uchun muhim vosita bo'lib xizmat qilgan. "Muvaqqat qoidalar" Rossiya imperiyasining mustamlakachilik yondashuvini ko'rsatadi, mahalliy aholi ustidan nazoratni amalga oshirishda yangi qo'lga kiritilgan hududlarni uning ma'muriy tizimiga birlashtirishga, shuningdek, mahalliy an'ana va tizimlarga qanday ta'sir ko'rsatganini ham o'rganishga yordam beradi. Shunday qilib, bu hujjat o'sha davrdagi ijtimoiy va siyosiy kontekstni yaxshiroq anglash imkonini beradi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. 19-yuzyillik 60-yillari Rossiya imperiyasi tomonidan Turkiston yerlari, xususan Zarafshon vohasining bosib olinishi va hududning imperiya tarkibiga qo'shib olinishi, Zarafshon muzofotini tashkil etilishiga oid bir qancha hujjatli manbalar mavjud, shuningdek bir qator tadqiqotlar amalga oshirilgan.

Rossiya imperiyasi bosqini davrida M.G.Chernyayev qo'shini safida bo'lgan Rossiya imperiyasining Turkistondagi harbiy kompaniyalarida ishtirok etgan harbiy tarixchi M.A. Terentyev "O'rta Osiyoni bosib olish tarixi" asarida Buxoro amiri Muzaffarxon tomonidan 1868-yil 23-iyundagi sulh shartnomasi imzolanganidan keyin, bosib olingan hududda Samarqand va Kattaqo'rg'on bo'limlaridan iborat Zarafshon muzofotini tashkil etilganligi, bu muzofot "harbiy-xalq boshqaruvi"ga asoslanishi, muzofot boshlig'i etib general A.K. Abramov tayinlanganini qayd qiladi.[1. 475] Zarafshon muzofotini tashkil etilganligi bilan bog'liq asosiy hujjat "Zarafshon muzofotini boshqarish bo'yicha muvaqqat qoidalar" hisoblanadi.

1882-1884-yillarda Turkiston o'lkasidagi boshqaruvni atroflicha taftish qilgan Rossiya imperatorining maxfiy maslahatchisi F.Girs hisobotlarida Zarafshon muzofoti tashkil etilganidan to shu kungacha (1882-1883-yillarni nazarda tutmoqda (T.Sh.)) qonun bilan tasdiqlangan Nizomga ega emasligi, muzofot tashkil etilganda, general-gubernator fon Kaufman 1868-yil 29-iyunda vaqtinchalik qoidalarni tasdiqlaganligi, bu qoidalar 1867-yildagi Semirechensk va Sirdaryo viloyatlarining boshqaruv Nizom loyihasi asosida tuzilganligini qayd qiladi. [2. 87]

"O'rta Osiyo Rossiya imperiyasi tarkibida" manbasida ham 1867-yil iyul oyida tuzilgan "Yettisuv va Sirdaryo viloyatlarida boshqaruv to'g'risidagi Nizom" loyihasi ishlab chiqilgan va u tasdiqlanmay turib, yangi hududda boshqaruvni tashkil etish uchun asos sifatida qabul qilingani keltiriladi. Shuningdek, 1867-yildagi ushbu "Vaqtinchalik Nizom" loyihasi musulmon aholisining diniy hayotini tartibga soluvchi me'yorlarning yo'qligi bilan ajralib turishi, chunki uni ishlab chiquvchilar musulmon elitesining mavqeini mustahkamlashdan qo'rqib, Turkistonda islomga hech qanday qonun chiqaruvchi maqom bermoqchi emas ekanligi qayd qilingan.[3. 247] 1868-yilgi "Muvaqqat qoidalar" ham ushbu nizomlar bilan mazmuman bir xil vazifani bajargaligi bizga ma'lum.

Rossiya imperiyasiga qaramlik davri Turkiston, xususan Samarqand tarixi bo'yicha yirik mutaxassislardan biri T.S.Saidqulov 1868-yil iyul oyining ikkinchi yarmida tuzilgan "Zarafshon muzofotini boshqarish to'g'risidagi muvaqqat qoidalar" K.P. fon Kaufman tomonidan tasdiqlanganidan so'ng darhol kuchga kirganligi haqida ma'lumot keltiradi. T.S.Saidqulov ham "Muvaqqat qoidalar" 1867-yilgi "Yettisuv va Sirdaryo viloyatlarida boshqarish to'g'risida"gi Nizom loyihasi asosida tuzilganligi qayd etgan.[4.102]

So'nggi yillarda mamlakatimizda bu davrga oid bir qancha tadqiqot ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, tadqiqotchilar K.Pardayev,[5. 61] Sh.Murodova,[6. 25] G.Normurodova,[7. 57-58] O.Irisqulov[8. 13] kabilarning ishlarida ham "Muvaqqat qoidalar", uning boshqaruv masalalariga oid ayrim jihatlari o'rganilgan. Shuningdek, T.Ahmedov tadqiqotlarida O'zbekiston Milliy Arxivining 22-jamg'arma, 1-ro'yxat, 3-yig'majildda saqlanayotgan "Zarafshon muzofotini boshqarish bo'yicha muvaqqat qoidalar"ni tashqi belgilari moddiy-texnik ma'lumotlari tahlili amalga oshirilgan.[9. 50-52]

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotni amalga oshirish jarayonida tarixiylik tamoyili, tizimlashtirish, tasniflash, muammoviy-xronologik, mikrotarix (microhistory) kabi usullardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. 1868-yilgi "Zarafshon muzofotini boshqarish bo'yicha muvaqqat qoidalar" hudud tarixi bo'yicha muhim manbaviy ahamiyatga ega bo'lgan hujjat hisoblanadi. Uni o'rganish va manbashunoslik nuqtai nazaridan tahlil qilish natijasida 1868-1886-yillarda mavjud bo'lgan Zarafshon muzofoti hayotining turli sohalari muzofot tashkil etilgan vaqtda qanday ko'rinishda bo'lganligi (boshlang'ich holati qanday bo'lganligi) to'g'risida qimmatli ma'lumotlarni olish mumkin. Mazkur hujjat Samarqandda Rossiya imperiyasi hokimiyati uzil-kesil o'rnatilgach ishlab chiqilgan va Turkiston general-gubernatorining 1868-yil 28-iyundagi 46-sonli farmoyishi bilan tasdiqlangan.[10]

T.Ahmedov O'zbekiston Milliy arxivida saqlanayotgan 48 varaqdan iborat I-22-jamg'arma, 1 ro'yxat 3-yig'majildda saqlanayotgan "Zarafshon muzofotini boshqarish bo'yicha muvaqqat qoidalar va shtatlar. Rossiya mulklari va Buxoro amirligi o'rtasidagi chegaralar bayoni" hujjatni tashqi tahlilini amalga oshirgan.[11. 114] U "Zarafshon muzofotini boshqarish bo'yicha muvaqqat qoidalar" ning manbaviy xususiyatini yoritishda "Muvaqqat qoidalar"ning qonunchilik xususiyatiga ega bo'lgan yoki bo'lmagan masalasini savol ostiga qo'yib 2008-yilda chop etilgan "Markaziy Osiyo Rossiya imperiyasi tarkibida" nomli adabiyotdan iqtibos keltirgan va "Muvaqqat qoidalar"ning qonunchilik hujjati ekanligi shubha ostida ekanligini, hujjatni ichki tahlili xulosasida esa bu hujjat qonunchilik hujjatlarining katta guruhini tashkil etuvchi, ma'muriy boshqaruv masalalari o'z ifodasini topgan hujjatlar turkumiga kirishini, shu jihatdan "muvaqqat

qoidalar” qonunchilik hujjatiga ega bo‘lgan hujjat deb hisoblash mumkinligini qayd qilgan.[11.115]

Tadqiqot davomida ushbu muammo, ya’ni 1868-yilgi “Zarafshon muzofotini boshqarish bo‘yicha muvaqqat qoidalar” nomiga ko‘ra qonun yoki nizommi, yoki tartiblar majmuimi ekanligini aniqlashda “Muvaqqat qoidalar” so‘zining ruschadagi “Временное положение” termini asl ma’nosini aniqlashtirdik. Rus tilining katta izohli lug‘ati (Большой толковый словарь русского языка) ga murojaat qilganimizda “Временное” so‘zi – “vaqtinchalik” ma’nosida “Положение”[12] so‘zi esa “Hokimiyat tomonidan o‘rnatilgan ijtimoiy hayotdagi rejim, tartib”, “Ijtimoiy-siyosiy munosabatlarning umumiyligi, jamiyat hayoti muhiti”, “Muayyan masala bo‘yicha qoidalar, qonunlar” kabi ma’nolarda kelishini aniqlashtirildi. O‘zbek tili izohli lug‘atida esa “muvaqqat”[13] so‘zi - “muayyan vaqtga belgilangan”, “vaqtincha”, “qisqa vaqtli”, “vaqtinchali”, “doimiy bo‘lmagan” deb izohlangan bo‘lsa “qoida”[14] so‘zi - 1. Turli hodisalar o‘rtasidagi bog‘lanish va munosabatlarni ifodalovchi, ma’lum sistema, amal va shu kabilarning asosini tashkil etuvchi tartib; qonun. 2. Biror ish-harakat, amalning qanday bajarilishi haqidagi rasmiy ko‘rsatma, yo‘l-yo‘riq yoki umum tomonidan qabul qilingan tartibot deb izohlangan. “Временное положение” so‘zini o‘zbekchaga tarjimasini “Muvaqqat qoidalar” dan tashqari “Vaqtinchalik tartib”, “Vaqtinchalik qonun”, “Vaqtinchalik rejim”, “Vaqtinchalik qoidalar” kabi ma’nolarda keladi. Shu nuqtai nazardan ushbu “Muvaqqat qoidalar” (“Временное положение”) xususiyati, maqsadi va nomiga ko‘ra ham ma’lum muddat amalda bo‘lgan qonun ekanligi oydinlashadi.

“Muvaqqat qoidalar” jami 5 ta bo‘lim 93 ta moddadan iborat bo‘lib, uning tarkibiy qismi quyidagilardan iborat:

I. Muzofotning ma’muriy tuzilishi; (1-21-moddalar)

- a) *Muzofot boshqaruvi (1-9-moddalar),*
- b) *Bo‘limlar boshqaruvi (10-15-moddalar),*
- v) *Mahalliy boshqaruv (16-21-moddalar).*

II. Muzofotning sudlov tuzilishi; (1-21-moddalar)

- a) *Sudyalar (22-26-moddalar)*
- b) *Sud hokimiyati organlari (27-34-moddalar)*
- v) *Sud ishlari (35-42-moddalar)*

III. Soliqlar, yig‘imlar va majburiyatlar; (43-65-moddalar)

1. Davlat soliqlari

- a) *Soliqlarni yig‘ish tashkilotlari (43-50-moddalar)*
- b) *Soliqlarni undirish (51-61-moddalar)*

2. Yig‘imlar va majburiyatlar

a) *Yig'implarni undirish uchun tashkilotlari (62-modda)*

b) *Yig'implarni undirish va majburiyatlarni o'tash (63-65-moddalar)*

IV. Daromadlarning kirimi va chiqimi, hisoblar va jo'natilgan pullarni yuritish; (66-89-moddalar)

V. Muzofot tibbiyot qismining tuzilishi; (90-93-moddalar)

“Muvaqqat qoidalar”ning 1-moddasida “Turkiston o'lkasi uzil-kesil shakllantirilgunga qadar, 1868-yilda Buxoro xonligidan qo'lga kiritilgan yerlardan alohida Zarafshon muzofoti tashkil etiladi”, deb ta'kidlangan bo'lsa 2-moddasida Muzofot hududi chegaralari aniq qilib belgilangan. Xususan “Zarafshon muzofoti chegarasi janubda Shahrisabz tog'lari, g'arbda Buxoro amirligi bilan chegara chizig'i (u Kattaqo'rg'onning oldidan alohida xalqaro komissiya tomonidan o'tkaziladi), shimolda Nurato tog'lari va sharqda Ilono'tti darasi va Qoshg'ar-Davon tizmasi tarmog'i bilan chegaralanadi. Sangzor vodiysi ham Zarafshon muzofoti tarkibiga kiradi;”[15]

T.Saidqulovning arxiv manbalari asosida bergan ma'lumotiga ko'ra Zarafshon muzofoti tashkil etilgandan keyin general A.K.Abramov raisligida zudlik bilan komissiya tuzildi. Komissiya oldida butun tuman va uning ikki bo'limining aniq chegaralarini aniqlash vazifasi turardi. Ushbu komissiya taqdimnomalariga ko'ra, sobiq Samarqand va Kattaqo'rg'on beklari hududida ikkita bo'lim tashkil etilgan. Samarqand bo'limi tarkibiga 11 ta aholi manzilini birlashtirgan 3 ta tuman va Kattaqo'rg'on bo'limi tarkibiga 16 ta qishloqni birlashtirgan 1 ta tuman kirgan, deb ma'lumot qoldirgan. K.K. Pardayevga ko'ra, Zarafshon muzofoti tashkil etilgach, sobiq tumanlar va amloliklar tugatilib, 1868-yilning oxirida volostlar tashkil etilgan.[5. 62] Biroq yuqorida keltirilgan ma'lumotlar qisman to'g'ri, xolos.

Agar T.Axmedov tomonidan keltirilgan ma'lumotlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, 1868-yilda o'rta Zarafshon vohasida Samarqand va Kattaqo'rg'on beklilaridan tashqari Chelak, Payshanba, Urgut va Qoratepa beklilarining bo'lganini ham ko'rishimiz mumkin. 1868-1871-yillarda esa Samarqand bo'limi 12 ta, Kattaqo'rg'on bo'limi 3 ta tumandan iborat bo'lgan va tumanlar o'z navbatida soliq uchastkalari - amloliklarga taqsimlangan. 1873-yilda amalga oshirilgan ma'muriy qayta tashkil etish natijasida Zarafshon muzofotida volost boshqaruv tizimi joriy etilgan edi. Unga ko'ra, Samarqand bo'limi 18 ta, Kattaqo'rg'on bo'limi va Tog'li tumanlar boshqaruvi 10 tadan volostga ega bo'lgan.[9. 156-157]

Zarafshon muzofotning ma'rkaziy boshqaruvi puxta o'ylangani hamda imperiya manfaatlariga markazlashgan holda bo'ysundirilganligi “Muvaqqat qoidalar”ning 3-9-moddalarida aks etgan. Xususan, muzofot Turkiston general-gubernatori tomonidan tayinlanadigan va chetlatiladigan alohida boshliq yurituvida bo'lishi (3-modda), muzofot boshlig'i qo'lida unga birlashtirilgan muzofotdagi harbiy-xalq va harbiy boshqaruv jamlanishi, u Yettisuv va Sirdaryo viloyatlari harbiy gubernatorlari bilan teng huquq va majburiyatlarga ega ekanligi,

muzofot boshlig'i bevosita Turkiston general-gubernatoriga, unga hududdagi qo'shinlar bo'ysunishi (4-modda),[15] muzofot boshlig'i harbiy xalq boshqaruvi ishlarini tashkil qilishi, qo'shinlarni boshqarish uchun huzurida yo'l devonxonasi tashkil etilishi (5-modda), muzofotning harbiy-xalq boshqaruvi amaldorlari muzofot boshlig'i taqdimi bilan Turkiston general-gubernatori tomonidan vazifalariga tayinlanishi va bo'shatilishi (7-modda) belgilangan. Bundan tashqari muzofot boshlig'i yo'qligida yoki betobligida uning vazifasini bo'lim boshliqlaridan kattasi bajaradi (8-modda). Muzofotning boshqaruv markazi Samarqand shahri (9-modda) bo'lib, hudud ma'muriy munosabatlarda ikki: Samarqand va Kattaqo'rg'on bo'limlariga bo'linishi, ular o'rtasidagi chegara muzofot boshlig'i tomonidan belgilanishi nazarda tutilgan.[16] Bunda ikkita bo'lim o'rtasidagi chegara chizig'i Samarqand va Kattaqo'rg'on beklilari o'rtasida mavjud bo'lgan chegaralar asosida o'tkazilishi eslatilgan (10-modda).

Bo'limlarda harbiy-xalq va harbiy ishlar bo'yicha boshqaruv bo'lim (uyezd) boshliqlari qo'lida jamlanadi (11-modda), shunigdek uyezd boshliqlari teng hokimiyat va majburiyatlardan foydalanadilar (12-modda). Bo'lim boshliqlari tarkibi shtatlar bilan belgilanadigan bo'lim boshqaruvi orqali harakat qiladilar (13-modda), ularning boshqaruv joyi Samarqand va Kattaqo'rg'on shaharlari etib belgilandi (14-modda). Bo'lim boshliqlarining katta yordamchilari va bo'lim boshqaruvidagi boshqa amaldorlar Yettisuv va Sirdaryo viloyatlari uyezd boshqaruvidagi amaldorlar kabi teng huquq va majburiyatlarga ega bo'lgan (15-modda).^[17]

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, Zarafshon muzofotidagi mahalliy boshqaruvni tashkil etishda Buxoro amirligi davridagi boshqaruv uslubi mahalliy ma'muriyat tizimini imperiya manfaatlariga to'la to'kis bo'sundirish ishlarini bosqichma-bosqich amalga oshirish maqsadida qoldirilgan. Xususan, Zarafshon muzofotining yerli aholisi oqsoqollar yurituvida bo'lgan oqsoqolliklarga bo'linishi (16-modda), bo'limlarda oqsoqolliklarning soni va ularning o'lchamlari Buxoro hukmdorligi davridagidek qoldirilgani (17-modda) va bir nechta oqsoqolliklarni aminlar boshqaruvida qo'shish, bunda mahalliy ehtiyojlar va kuchli ta'sirga ega bo'lgan yerlilarni rus hokimiyatiga bog'lab qo'yish zaruratidan kelib chiqib amalga oshirillishi belgilangan.[18] Shuningdek, bir nechta oqsoqolliklarni bitta oqsoqollikka birlashtirish o'lka boshlig'ining roziligi bilan amalga oshiriladi (18-modda). Oqsoqollar va aminlar xalq tomonidan bo'lim boshliqlari bu uchun eng maqbul deb topgan usullar orqali saylanishi (19-modda), oqsoqollar bo'lim boshliqlari, aminlar esa muzofot boshlig'i tomonidan o'z vazifalariga tasdiqlanishi va bekor qilinishi belgilangan (20-modda).

Zarafshon muzofotida sudlarning uch turi: harbiy sud, xalq sudi va imperiyaning umumiy qonunlariga asoslangan sudlar faoliyat yuritishi (22-modda), o'lkada yerlilari Buxoro fuqarolari kabi, ammo Zarafshon muzofoti boshlig'i tomonidan zararli siyosiy xarakterga ega deb topilgan

barcha jinoyatlar uchun harbiy sud tomonidan sudlanishi (23-modda) belgilangani sud tizimi imperiya manfaatlariga xizmat qilishini amalda mustahkamlagan.

24-moddada imperiya siyosiy boshqaruviga tasir qilmagan masalalar “Yerlilarning boshqa barcha jinoyat ishlari, o‘zaro da’volari va tortishuvlari xalq sudi tomonidan ko‘rib chiqiladi” deb belgilangan bo‘lib, unga eslatma qilib yerlilar Imperiyaning boshqa joylarida sodir etgan jinoyatlari uchun jinoyat sodir etilgan joyda amal qilayotgan qonunlar bo‘yicha sudlanishi belgilangan.

O‘lkada vaqtinchalik va doimiy bo‘lib turgan Yettisuv va Sirdaryo viloyatlari yerlilari Yettisuv va Sirdaryo viloyatlarini boshqarish to‘g‘risidagi Nizom loyihasi asosida, qolgan rus fuqarolari esa imperiyaning umumiy qonunlari asosida sudlanishi (25-modda) ta’kidlangan. Bundan tashqari Zarafshon muzofoti yerlilari va bu yerga Yettisuv va Sirdaryo viloyatlaridan kelgan, shuningdek, bu yerda doimiy yashovchi ruslar o‘rtasidagi jinoiy va fuqarolik ishlari imperiyaning umumiy qonunlari asosida ko‘rib chiqilish, muzofot yerlilari va bu yerga Yettisuv va Sirdaryo viloyatlaridan kelgan yerlilar va qirg‘izlar o‘rtasidagi ishlar bu viloyatlarni boshqarish to‘g‘risidagi Nizom loyihasi asosida ko‘rib chiqilishi amalda mustahkamlangan.(26-modda).[19]

Sud hokimiyati organlarini shakllantirish masalasi ham ushbu hujjatda batafsil bayon etilgan. Xususan, shariat va odatlar bo‘yicha ishlarni ko‘rib chiqish va hukm chiqarish uchun yerlilar orasidan qozilar saylanagan (27-modda). Shahar va qishloqlar qozilar xalq tomonidan bo‘lim boshliqlari bu ish uchun eng maqbul deb topgan usullar yordamida saylanadilar (28-modda), shu bilan birga qozilar yurisdiksiyasi ostidagi uchastkalarining soni va kattaligi Buxoro hukmdorligi davridagidek qoldirilib (29-modda), ular o‘z mansabiga bo‘lim boshliqlari tomonidan tasdiqlangan va bo‘shatilgan. (30-modda). Rus qonunlari bo‘yicha ishlarni ko‘rib chiqish va hukm chiqarish uchun muzofot sudyasi lavozimi ta’sis etilib, muzofot sudyasi Sirdaryo viloyati uyezd sudyalariga teng huquq va majburiyatlarga egaligi belgilangan (32-modda). [20]

Sud ishlari ham imperiya manfaatlariga ustalik bilan bo‘ysundirilgan. Xususan, qozilar da’vo hajmi 100 rubldan oshmagan masalalarda tugallangan sud hukmi e’lon qila olgan, qolgan barcha hukmlar bo‘yicha bo‘lim boshliqlariga appelyatsion shikoyatlar kiritish nazarda tutilgan (36-modda). Shuningdek da’vo hajmi 100 rubldan yuqori ishlar bo‘yicha hukmlari ustidan bo‘lim boshlig‘iga shikoyat qilishga yo‘l qo‘yiladi. Bo‘lim boshlig‘i bir yoki bir nechta qozining qozining ishtirokida masalaga hukm chiqargan (37-modda). Rus qonunlari bo‘yicha ko‘rib chiqiladigan barcha ayblovlar, shikoyatlar va chaquvlar bo‘lim boshliqlariga kiritiladi. Ular dastlabki tergovni amalga oshiradilar va imperiyaning umumiy qonunlari bo‘yicha ko‘rib chiqiladigan ishlarni muzofot sudyasiga o‘tkazgan (38-modda). Bu modda mazminidan shuni anglash mumkinki, bo‘lim boshlig‘i tergov va sud ishlarida ham yirik vakolatlariga ega bo‘lgan.

Shuningdek harbiy-sud komissiyalari yurituvda bo'lishi lozim bo'lgan ishlar bo'yicha tergov jarayonlari va tergov natijalari bo'lim boshliqlarining ixtiyorida bo'lib, uning mulohazasi bilan muzofot boshlig'i ixtiyoriga taqdim etilgan (39-modda). Ishlarning harbiy sudga topshirilishi esa Zarafshon muzofoti boshlig'i ixtiyoriga bog'liq bo'lgan (40-modda).[21] Bunda Zarafshon muzofoti boshlig'i sud tizimida cheklanmagan vakolatda ekanligi oydinlashadi.

Agar yerlilar o'rtasidagi munozarali ishlar bo'yicha shikoyatlar rus hokimiyatiga taqdim etilgan va bu ishlar bo'yicha hukmlar pul undiruvlari va uzoq bo'lmagan qamoq jazolari bilan cheklanadigan bo'lsa bunday ishlarni ko'rib chiqish bo'lim boshliqlari vakolatida bo'lgan (42-modda).

Muvaqqat qoidalarda soliqlar va yig'implarni undirilishi dastlab Buxoro amirligi davridagi tayyor soliq tizimini qoldirgan holda amalga oshirilishi imperiya ma'muriyati uchun eng maqbul yo'l bo'lgan. Chunki soliq siyosati bosqichma-bosqich Rossiya imperiyasi manfaatlariga to'la bo'ysundirilganiga qadar mavjud mahalliy tizim samarali ish bergan. Xususan, Xiroj va tanob soliqlarini yig'ish uchun Zarafshon muzofoti bo'limlari sarkorliklarga taqsimlanib (43-modda), bo'limlarda sarkorliklarning soni va ularning kattaligi Buxoro hukmronligi davridagidek qoldirilgan (44-modda). Sarkorliklarda xiroj va tanob soliqlarini to'plash bilan sarkorlar shug'ullanadilar (45-modda) va ular xalq tomonidan bo'lim boshliqlari bu ish uchun eng maqbul deb topgan usullar bilan saylanib (46-modda) bo'lim boshliqlari tomonidan tayinlangan va bo'shatilgan (47-modda).[22] Zakot ishlarini ko'rib chiqish uchun Zarafshon muzofotining har ikki bo'limida zakotchi lavozimi ta'sis etilib (49-modda) muzofot boshlig'i tomonidan vazifasiga tayinlangan va bo'shatilgan (50-modda).

Muzofotning yerli aholisidan xiroj va tanob soliqlari undirililishi (51-modda), bunda xiroj hosilning 1/5 qismi hajmida (52-modda), tanob solig'i Buxoroliklar hukmronligi davrida undirilgan o'lchamlarda tanob solig'i undirilishi (53-modda) belgilangan. Sarkor tomonidan to'plangan xiroj va tanobning miqdori ahamiyatli darajada bo'lsa unga soliqlar miqdorining ma'lum ulushi mukofot tariqasida berilgan (55-modda).[23] Bundan tashqari General gubernatorlik bo'limlar ma'muriyati xodimlarini xazinaga xiroj va tanob soliqlarini tushumiga qarab mukofotlagan (56-modda).

Zarafshon muzofoti hududi orqali o'tadigan va rus savdogarlariga tegishli bo'lmagan har bir savdo karvonidan zakot yig'imi undirilishi ammo Sirdaryo viloyati jamoat-xo'jalik boshqarmasiga zakot to'lagan karvonlar Zarafshon muzofotida zakot undiruidan ozod etilishi (57-modda) belgilangan. Zakot yig'imi mahalliy savdogarlardan ikki vakil, agar mumkin bo'lsa, rus amaldori ishtirokida amalga oshirililishi, zakotchi patta berish uchun bo'lim boshlig'idan ipga tortilgan kitob olishi va uning har bir varag'i to'ldirilib borilishi (58-modda) tartibi joriy qilingan.[24] Bu orqali bo'lim va muzofot boshlig'i soliq tushumlarini to'la nazorat qila olgan.

Xiroj va tanob soliqlarini undirish tartibi kabi zakotchi tomonidan undirilgan zakotning miqdori ahamiyatli darajada bo'lsa, u muzofot boshlig'i tomonidan zakot miqdorining ma'lum ulushi miqdorida mukofotlanishi (60-modda) belgilangan. Shuningdek General gubernatorlik bo'limlar ma'muriyati xodimlarini xazinaga yig'imini tushumiga qarab mukofotlagan (61-modda).[25] Bu esa, soliq tushumlarining ma'muriyat xazinasiga ko'proq hajmda yig'ilishiga zamin yaratgan.

Hujjatning 62-moddasida bo'lim boshliqlari qolgan yig'implarni undirish uchun o'zlarining katta yordamchilari orqali amalga oshirishi, ular o'z navbatida yig'implarni oqsoqollar orqali amalga oshirishi belgilangan. Hujjatning 63-64-moddaoddalari Buxoro hukumati tomonidan undirilgan barcha pul yoki natura ko'rinishidagi yig'implar aniqlash, hisoblash va general gubernatorlik xazinasiga o'tkazish tartibi ko'rsatilgan. Hujjatning IV-bobi - Daromadlarning kirimi va chiqimi, hisoblar va jo'natilgan pullarni yuritish tartibi bayon qilingan bo'lib, unda kirim-chiqim kitoblarini yuritish, hisob kitoblar, pattalarni yuritish (66-67,71-74-moddalar), sarkorlar, zakotchilar va boshqa to'lovchilar uyezd boshliqlariga pullarni berish tartibi (68-modda) bayon qilingan. Soliq va yig'implarning miqdori to'g'risidagi e'lonlar yerli tillarda, albatta ularning rus tilidagi tarjimasini bilan taqdim etilishi belgilangan (69-modda)[26] bo'lib, barcha hisob-kitoblar Rossiya kumush tangasida olib borilishi (Buxoro tangalarining qabul qilinishiga yo'l qo'yilgan) joriy qilingan (70-modda).

Zarafshon muzofotining soliqlar va yig'implar undirilgunga qadar harbiy-xalq boshqaruvi bo'yicha xizmatchilarning ta'minoti va boshqa dastlabki xarajatlari Turkiston general-gubernatori tomonidan, keyingi xarajatlar Zarafshon muzofotidagi soliq va yig'implar tushumidan amalga oshirilgan (75-modda). Bunda muzofot boshlig'i har oy daromadlar kirimi hisobidan xarajatlar qilishi mumkin bo'lgan (76-modda). Buning uchun u har oyning so'nggida, bo'lim boshliqlariga, xizmatchilar ta'minoti va boshqa xarajatlarini qanoatlantirishga farmoyish chiqargan.(77-modda).[27] Sarkorlar, zakotchilar, oqsoqollar, qo'rboshilar va bo'limlar ma'muriyati bo'yicha xizmat qilayotgan mansabdorlarga pul mukofotlari har bir holatda faqat Turkiston general-gubernatorining ruxsati bilan amalga oshirilgan (82-modda). Bo'lim boshliqlari bo'lim boshqaruvlarida saqlanayotgan pullar miqdori har safar 2 ming rubldan oshganda ortiqcha pullarni Zarafshon muzofoti boshlig'iga yuborgan. (Kattaqo'rg'on bo'limi boshqaruvida kutilmagan holatlar uchun qo'shimcha 3 ming 500 rubl saqlashga ruxsat berilgan) (83-modda).[28] Zarafshon muzofoti boshlig'i esa hujjatxonasida saqlanayotgan pullar har safar 20 ming rubldan oshgan taqdirda yig'ilib qolgan pullarni Sirdaryo viloyati g'aznachiligiga yuborgan. (Zarafshon muzofoti boshlig'i hujjatxonasida kutilmagan holatlar uchun qo'shimcha 10 ming rubl saqlashga ruxsat berilgan) (84-modda). Yuborilgan pullar Turkiston general-gubernatori Devonxonasi nomiga depozit qilingan (85-modda).

“Muvaqqat qoidalar”ga asosan bo‘lim boshliqlari har hafta Zarafshon muzofoti boshlig‘iga o‘z boshqaruvlaridagi naqd summalarning holati to‘g‘risida qisqacha qaydnomalar yuborib turishi (86-modda), shuningdek to‘plangan barcha nomdagi daromadlarning batafsil qaydnomalarini har oyning 5-sanasidan kechikmasdan yuborishi belgilangan (87-modda). O‘z navbatida muzofot boshlig‘i har hafta Turkiston general-gubernatori hujjatxonasiga har bir bo‘lim boshqaruvi va o‘z hujjatxonasida saqlanayotgan summalarning qisqacha qaydnomasini (88-modda), har oyning 10-sanasidan kechikmasdan Turkiston general-gubernatori hujjatxonasiga har bir bo‘lim bo‘yicha barcha nomdagi soliq va yig‘imlar bo‘yicha to‘plangan daromadlarning batafsil qaydnomasi taqdim etib turgan (89-modda).[29]

Zarafshon muzofotida harbiy-xalq boshqaruvi xizmatchilari, shuningdek, yerli aholiga tibbiy xizmat ko‘rsatish uchun har bir bo‘limga alohida shifokor tayinlangan (90-modda). Tibbiyot xodimlari yetishmasligi sababli bo‘lim shifokori vazifasini batalyon shifokorlaridan biri qo‘shimcha maosh evaziga bajarishi mumkin bo‘lgan (91-modda). Bo‘limlardagi shifokorlar ustidan nazorat muzofot shifokoriga yuklangan. U bir vaqtning o‘zida Zarafshon muzofotida joylashgan qo‘shinlarning bosh shifokori ham hisoblangan.[30]

1886-yil 12-iyulda „Turkiston o‘lkasini boshqarish to‘g‘risida Nizom“ning qabul qilinishi bilan ushbu hujjatning 1-moddasiga asosan Zarafshon muzofoti Samarqand viloyatiga aylantirildi.[31. 1] Shu bilan “Zarafshon muzofotini boshqarish bo‘yicha muvaqqat qoidalar” o‘z kuchini yo‘qotdi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, 1868-1886-yillarda amalda bo‘lgan “Zarafshon muzofotini boshqarish to‘g‘risidagi muvaqqat qoidalar”da Rossiya imperiyasining kengayishi davridagi Turkistondagi ma‘muriy-boshqaruv strategiyalari o‘z ifodasini topgan. Hujjatdan ba‘zi xulosalar chiqarish mumkin. Hujjat rus hokimiyati va mavjud urf-odatlar o‘rtasidagi muvozanat zarurligini ta’kidlaydi, bu rang-barang va madaniy jihatdan boy mintaqani boshqarishning murakkabligini anglashdan dalolat beradi. Imperiya ma‘muriyati rasmiy me‘yoriy-huquqiy hujjatlar to‘plamini o‘rnatish orqali hujjat boshqaruvni osonlashtiradigan va mahalliy boshqaruvni Imperiya manfaatlariga bo‘sundirishga xizmat qiluvchi tizimli huquqiy muhitni yaratishga intildi.

Umuman olganda, ushbu hujjatni o‘rganish, tahlil qilish orqali 19-yuzyillik oxiridagi Rossiya imperiyasining ma‘muriy siyosati va mustamlakachilik muhiti, ma‘muriyat va aholi o‘rtasidagi munosabatlar me‘yorlari haqida kengroq ma‘lumotga ega bo‘lish mumkin.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. М.А.Терентьев. История завоевания Средней Азии. Том 1. Петербург. 1903.
2. rusneb.ru Ф.Гирс. Отчет ревизирующего, по Высочайшему повелению, Туркестанский край, тайного советника Гирса.

3. Центральная Азия в составе Российской империи. Санкт-Петербург, Новое Литературное Обозрение 2008.
4. Саидкулов Т.С. Самарканд во второй половине XIX – начале XX веков. Из социально-экономической и политической истории средней части Зеравшанской долины: Учеб. Пособие. – Самарканд, 1970.
5. K.Pardayev. O‘rta Zarafshon (Miyonkol) vohasining XIX-XX asr boshlarida ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayoti. Tarix fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi. Toshkent. 2003.
6. Sh.Murodova. XIX asr oxiri XX asr boshlarida Turkiston o‘lkasidagi ozodlik harakatlari tarixi. Tarix fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi. Toshkent. 2004.
7. G.Normurodova. XIX asr oxiri XX asr boshlarida Samarqand viloyati ijtimoiy qatlamlari: Tarixiy tahlil. Tarix fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi. Toshkent. 2011.
8. Irisqulov. XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Samarqand shahrida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlar. tarix fanlari sohasida falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Samarqand. 2019.
9. T.Ahmedov. Zarafshon muzofoti boshlig‘i mahkamasi ish yuritish xujjatlari tarixiy manba sifatida. Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori ilmiy darajisini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Samarqand. 2021.
10. O‘zbekiston Milliy arxivi, I-5-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 1-ish, 1-varaq
11. T.Axmedov. “Zarafshon muzofotini boshqarish bo‘yicha gvaqqat qoidalar”ning tarixiy tadqiqotlarda o‘rganilishiga doir. O‘tmishga nazar jurnali maxsus soni. Toshkent. 2020.
12. [https://gramota.ru/poisk?query=положени&mode=slovari&dicts\[\]=42](https://gramota.ru/poisk?query=положени&mode=slovari&dicts[]=42)
13. <https://izoh.uz/word/muvaqqat>
14. <https://izoh.uz/word/qoida>
15. O‘zbekiston Milliy arxivi, I-22-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 3-ish, 2-2 o.t. varaq,
16. O‘zbekiston Milliy arxivi, I-22-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 3-ish, 3-3 o.t. varaq
17. O‘zbekiston Milliy arxivi, I-22-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 3-ish, 4-4 o.t. varaq
18. O‘zbekiston Milliy arxivi, I-22-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 3-ish, 5-5 o.t. varaq
19. O‘zbekiston Milliy arxivi, I-22-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 3-ish, 6-6 o.t. varaq
20. O‘zbekiston Milliy arxivi, I-22-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 3-ish, 7-7 o.t. varaq
21. O‘zbekiston Milliy arxivi, I-22-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 3-ish, 8-8 o.t. varaq
22. O‘zbekiston Milliy arxivi, I-22-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 3-ish, 9-9 o.t. varaq
23. O‘zbekiston Milliy arxivi, I-22-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 3-ish, 10-10 o.t. varaq
24. O‘zbekiston Milliy arxivi, I-22-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 3-ish, 11-11 o.t. varaq

25. O‘zbekiston Milliy arxivi, I-22-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 3-ish, 12-12 o.t. varaq
26. O‘zbekiston Milliy arxivi, I-22-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 3-ish, 13-13-o.t. varaq
27. O‘zbekiston Milliy arxivi, I-22-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 3-ish, 15-15-o.t. varaq
28. O‘zbekiston Milliy arxivi, I-22-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 3-ish, 16-16 o.t. varaq
29. O‘zbekiston Milliy arxivi, I-22-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 3-ish, 17-17-o.t. varaq
30. O‘zbekiston Milliy arxivi, I-22-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 3-ish, 18-varaq
31. Положения в Туркестанского края. Том II, часть 2, Санкт Петербургъ. 1886.